

**ALISHER NAVOIY ASARLARINING O‘ZBEK MILLIY  
LEKSIKOGRAFIYASI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI. NAVOIY  
ASARLARI TILINI IZOHLOVCHI DASTLABKI LUG‘ATLAR**

Turgunova Buxalicha Abdumutalib qizi

[buxalicha1993@gmail.com](mailto:buxalicha1993@gmail.com)

**ANNOTATSITA**

Ushbu tezisda Alisher Navoiy asarlarining eski o‘zbek tilining nufuzini oshirishdagi ahamiyati, Navoiy asarlarini o‘rganishga bo‘lgan forsiy va turkiy zabon ijodkorlarning qiziqishlari va ehtiyojlari, Navoiy asarlari tilini izohlovchi ikki tilli lug‘atlarning ilk na‘munalari, ularning tuzilishi, so‘zlarning izohlanish uslublari ularning o‘xshash va farqli tomonlari haqida ma‘lumotlar yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** turkiy til, eski o‘zbek tili, leksiografiya, lug‘at, fe‘l shakllari, infinitiv, fonetika, morfologiya, orfografiya;

Ma‘lumki, biror tilning taraqqiyoti mamlakatning siyosiy ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq. Tarixga nazar tashlasak, Temuriylar davri o‘zbek xalqi madaniyati, ilm fan taraqqiyoti jihatdan eng gullab yashnagan davr hisoblanadi. Temuriylar imperiyasining tashkil topishi, mamlakatlar bilan o‘zaro diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi, ilm-fan, madaniyat, san‘at, arxitekturaning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilganligi, ijod ahliga ko‘rsatilgan yuksak ehtirom shakl shubhasiz turkiy (o‘zbek) tiling nufuzini oshirishda, qo‘llanish doirasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Temuriylar saroyida o‘sib-ulg‘aygan Alisher Navoiy turkiy tilda sermahsul ijod qilib, o‘zining bebaho asarlari bilan o‘zbek milliy tilini adabiy til darajasiga ko‘tarishda o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Navoiy asarlariga, ayniqsa, forsiy zabon adiblarning qiziqishi ortdi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish, qolaversa Navoiyning turkiy tilda yozilgan shox asarlarini keng ommaga tanshtirish maqsadida ko‘plab tarjima lug‘atlari yaratildi.

Bu davrda yaratilgan Toli Imoniyning “Badoyi al-lug‘at”, Mirza Mehdiyxonning “Sangloh”, “Lug‘ati atrokiya”, “Xulosayi Abbosi”, (“Sangloh”ning qisqa varianti); Muhammad Rizo Xoksorning “Muntaxab allug‘at” asari, shuningdek, eski o‘zbekcha-turkcha “Abushqa” lug‘atlari bevosita Navoiy asarlarida foydalanilgan so‘zlardan tuzilgan lug‘atlardir. Ushbu asarlar jahon leksikografiyasi tarixida, ilk bor ma‘lum bir adib asarlari bo‘yicha tuzilganligi jihatidan yangilik hisoblanadi.



Davr nuqtai nazaridan olib qaralganda, na Yevropa va na o'zining munosib lug'atchilik tajribasiga ega bo'lgan arab va fors leksikografiyasi tarixida ham aynan bunday uslubdagi lug'atlarning mavjud emasligi fikrimizning isbotidir. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab o'zbek olimlari yuqoridagi lug'atlarning leksikografik xususiyatini o'rganishga kirishdilar. Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan lug'atlarda mualliflar, asosan, eski o'zbek tiliga xos bo'lgan so'zlarni tanlab olishni maqsad qilishgan.

Alisher Navoiy asarlari tili bo'yicha yaratilgan dastlabgi lug'at "Badoe - al-lug'at" asari hisoblanadi. Muallif Toli Imoniy Hiraviyning hayoti to'g'risida ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan bo'lsada, uning tahallusidan va asar Husayn Boyqaro farmoniga muvofiq yozganidan uni asli Hirotlik va Alisher Navoiyga zamondosh deb tahmin qilishimiz mumkin.


Tuzilishiga ko'ra "Badoe-al-lug'at"da so'zlar alifbo tamoyili asosida joylashtirilgan va turkiycha so'zlarning ma'nolari fors tilida izohlangan. So'zlar izohida, leksik-semantik ta'rif bilan bir qatorda, fonetik, orfografik va morfologik ma'lumotlar ham keltirilgan. Fonetik orfografik ma'lumotlar so'zning talaffuzi va yozilishi xususidagi qoidalardan tashkil topgan. Lug'atda so'zlarning morfologiyasi arab filologiyasi an'analari asosida puxta ishlangan. Otlar bosh kelishikda, birlik sonda, fe'llar esa infinitiv shaklida keltirilgan. Lug'atning illyustrativ materiali Alisher Navoiyning "Xamsa" va "Chor devon" asarlaridan olingan. Bugungi kunga qadar Toli Imoniy Hiraviyning "Badoe-al-lug'at" asari bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Lug'atning fotokopiyasi bilan ruscha tarjimasini alohida kitob holida A.K.Borovkov tomonidan nashr ettirilgan.

Alisher Navoiy asarlari asosida yaratilgan lug'atlardan yana biri – "Abushqa" lug'ati. Mazkur lug'atning nomi ham, muallifi ham noma'lumligi sabab, lug'at ichidagi birinchi so'z bilan "Abushqa" (qari chol) deb atab kelinadi. Lug'at "Badoe-al-lug'at" asariga ko'p jihatdan yaqin. Lug'at "Badoe-al-lug'at"dan I asr o'tgach, XVI asrning birinchi yarmida yaratilgan. Har ikki lug'atda misollar

Alisher Navoiy asarlaridan olingan. A.K.Borovkovning taxminicha, "Abushqa"ning muallifi "Badoe-al-lug'at"ni yaxshi bilgan. Bu lug'atlar orasidagi yaqinlik ularda ko'p so'zlarning bir xil izohlanishi va ularda keltirilgan illyustrativ materialning bir-biriga o'xshash ekanligida ko'rinadi. Lekin bu o'xshashliklardan "Abushqa" "Badoe-al-lug'at"ning ko'chirmasi degan fikrga borolmaymiz. Sababi ikki lug'at orasidagi sezilarli farqlarning mavjudligida. 1-chizmada ikki lug'atning ayrim farqlari beriladi.



1-chizma



Muhammad Yoqub Changiyning “Kelurnoma” asari ham eski o‘zbek tili bo‘yicha yaratilgan lug‘atlar orasida o‘ziga hos ahamiyatga ega. Lug‘at XVII asrda Hindistonda, boburiylardan Abu Muzaffar Muhiddin Aurangzeb hukmronligi davrida uning topshirig‘iga asosan yaratilgan. Lug‘atda eski o‘zbek tiliga tegishli so‘zlarning ma‘nolari, fors tilida izohlanadi. Fe’llar lug‘atda infinitiv shaklda (-moq, -mog‘ shaklida) berilgan. Fe’llarning ma‘no xususiyati bilan bir qatorda ularning grammatik kategoriyalari, zamon formalari ham izohlanadi. Bu asar ikki xil lug‘atning ajoyib namunasi. Lug‘at 15 bobdan va 332 fasldan iborat bo‘lib, ulardan 14 bobi arab alifbosi asosida joylashtirilgan 400 dan ortiq fe’lni izohlashga bag‘ishlanadi. Lug‘atning oxirgi bobi ot so‘zlarga bag‘ishlanadi. Muhammad Yoqub Changiyning “Kelurnoma” asari haqida muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Bu lug‘at ikki tipdagi lug‘atni – uya va ideografik lug‘atni o‘z ichiga olganligi bilan harakterlanadi.

Fazlullaxon Barlosning “Lug‘ati turkiy” asari o‘zbekcha-forscha lug‘at sirasiga kiradi. Turkolog olim A.Shcherbakning fikricha, lug‘at XVII asrning oxirida yaratilgan. Asar uch qismdan iborat:

- 1- qismida eski o‘zbek tilidagi hodisalar fe’lning infinitiv shaklida fors tilida izohlangan;
- 2- ikkinchi qismida fe’lning boshqa shakllari (mayl, zamon) tavsiflangan.
- 3- qismi otlar talqiniga bag‘ishlangan.

Tilshunos A.Ubaydullayev Fazlullaxonning "Lug'ati turkiy" asari tahlilida lug'atda so'zlar izohlarining quyidagi turlarini ko'rsatadi:

- muqobili bilan izohlash;
- kengroq izohlash;
- umumiy izohlash;
- qo'shimcha ravishda hindcha so'zlar bilan izohlash (Ubaydullayev, 2011)

Lug'atda so'zlarning talaffuziga oid ma'lumot ham bor. O'zbek adabiy tili fonetik sistemasi taraqqiyotini o'rganishda bu ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Mutaxassislarining ko'rsatishicha, Fazlullaxonning "Lug'ati turkiy" asari kamchiliklardan ham xoli emas. Unda ayrim so'zlarning ma'nosi noto'g'ri izohlangan. Lug'atda illyustrativ material ham etarli emas. Ba'zi so'zlar izohida umuman misollar yo'q.

Yuqorida berilgan lug'atlar XV asr lug'atchiligining ilk namunalari sifatidagina berildi. Aslida bu turdagi lug'atlar juda ham bisyor va hozirgi kunga qadar eski o'zbek tili va Navoiy asarlarining izohli lug'atlari ustida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, Alisher Navoiy asarlari lug'ati" (1972), "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" (1-4 jildlar, 1983-1984) kabi lug'atlar tuzilmoqda, Ushbu boy ilmiy me'rosni qanchalik tadqiq qilsak, o'rgansak shuncha turkiy tilimizning ochilmagan qirralari ochilaveradi va tilimizning naqadar boy til ekanligiga amin bo'lamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmonov A., (2002). *O'zbek tilshunosligi tarixi*. Toshkent: "O'zbekiston".
2. Fozilov E., (1971). *Sharqning mashhur filologlari*. Toshkent.
3. Fattahov X., (1981). *O'zbek leksikografiyasi tarixiga bir nazar*. Toshkent.
4. Normamatov S. (Toshkent). *Leksikografiya asoslari*. 2020.
5. Qo'chqorov I., I. (Toshkent). *Turkiy filologiya kirish*. 1984.
6. Jabborov X., (2003). *Buyuk tilshunoslar*. Qarshi.
7. Qo'chqortoev I. Isabekov B. *Turkiy filologiyaga kirish*. - Toshkent :, 1984.
8. Ubaydullayev A "Lug'ati turkiyning " leksikografik tadqiqi. - Toshkent :, 2011.
9. Z Hamidov *Lug'atshunoslik tarixi va qo'lyozma lug'atlar*. - Toshkent : "Adolat", 2004.

